



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 166 sahifa,
13-iyul, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bolalik davridagi autizmning turli shakllarini differensial tashxislash	10
<i>Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladigan korreksion ish tamoyillari	14
<i>Karimova Zulfiya Abduraxmanovna, Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda axborot iste'mol madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari	19
<i>Dadonova Aziza Tulkunovna</i>	
Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini psixologik tahlili	23
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Oliy ta'lim tizimida muammoli o'qitish texnologiyasi	30
<i>Tuksanova Zilola Izatulloyevna</i>	
Shahar va qishloq yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarning qiyosiy tahlili	35
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Organik kimyo ta'limida ochiq tipli STEAM loyihalarini loyihalashning didaktik modeli va uni amaliyotga joriy etish metodikasi	41
<i>Bo'riyev Rashidbek O'ktamjonovich</i>	
Kasbiy kompetentlikni oshirishda raqamli ta'lim vositalari va interaktiv metodlardan foydalanish	47
<i>Fazildjanova Nilufar Xikmatdjanovna</i>	
Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion va ta'lim ekotizimidagi roli	50
<i>Mirzayeva Nigora Ibrohimjon qizi</i>	
Kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etishning nazariy-metodologik asoslari	54
<i>Qobilov Voxidjon Zoxidovich</i>	
Психологические факторы мотивации личности в обучении иностранному языку	58
<i>Мухамеджанова Римма Рашидовна</i>	
Jadid ma'rifatparvarlarining boshlang'ich ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda kitobxonlik fazilatlarini va madaniyatini shakllantirishdagi pedagogik tajribalari	66
<i>Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Fayzilova Mohinur Azamhon qizi</i>	
Talabalarda kelajakni strategik modellashtirish layoqatini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalarning qiyosiy-pedagogik tahlili	70
<i>Sadriddinova Feruza Meliyevna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda fanlararo abstsessial va ordinal bog'liqlikka asoslangan metodik ta'minotni takomillashtirish	75
<i>Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich</i>	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish: muammo va yechimlar	80
<i>Qudratov O'ktam G'ofurovich</i>	
Ustoz-shogird tizimida raqamli vositalardan foydalanishning metodik asoslari	85
<i>Tursunov Xusniddin Isomovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda maktab va oila hamkorligining pedagogik imkoniyatlari	88
<i>Safarova Halovat Barnoyevna</i>	
Globallashtirish sharoitida tolerantlik madaniyatining nazariy-metodologik asoslari	91
<i>Yusupova Maftuna Ilxomidin qizi, Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi</i>	
Adobe After Effects muhitida inersiyaviy davomiylik va ustma-ust harakatni avtomatlashtirishning matematik modeli (Ziyoanim Overlap)	97
<i>Hakimov Bahtiyorjon Muzaffar o'g'li</i>	
Tizimli yondashuv asosida talabalarning raqamli kompetensiyasini takomillashtirishning uch komponentli konseptual modeli	101
<i>Kulidjanova Yulduzxon Inomjon qizi</i>	



The Theory of Fostering Students' Responsibility for Natural Resources and Waste in Karakalpak Folk Pedagogy.....	104
<i>Tursinbekova Qundizgul Joldasbekovna</i>	
Soft skills kompetensiyalarining ilmiy-pedagogik mohiyati va zaruriyati: soft skills tushunchasining evolyutsiyasi, asosiy komponentlari, turlari va tasnifi	109
<i>Igamberdiyeva Gulmira Botir qizi</i>	
O'zbek va ingliz tillarida "yolg'izlik" konseptining leksik-semantik xususiyatlari.....	115
<i>Sabina Saitmurodova Olim qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlashda art-pedagogikaning imkoniyatlari.....	119
<i>Komolova Iroda Xamidullayevna</i>	
9-sinf iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida GIS texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va uslubiy muammolari	123
<i>Sapayeva Gulbahor Odilbek qizi</i>	
Zamonaviy biologiya ta'limida interaktiv metodlarni qo'llashning nazariy jihatlarini	126
<i>Abdullayeva Guzalxan Vladimirovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga tayyorlashning zarurati	130
<i>Berdimurodova Mexrubon Masudjonovna</i>	
Nutq nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuv jarayoniga ta'sir etuvchi omillar	136
<i>G'aniyeva Maloxat Odilovna</i>	
Ruhiy salomatlikni mustahkamlashda psixologik treninglarning ahamiyati	140
<i>Maqsuda Norbosheva, Nafisa Abduyeva</i>	
Xitoy tilini xalqaro miqyosda o'qitishning zamonaviy tendensiyalari.....	144
<i>Shasaidova Lola Shamaksudovna</i>	
Социально-экологический кризис в Южном Приаралье.....	149
<i>Сеитова З. П.</i>	
Iqtisodiy fanlar bo'yicha to'garak faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodik asoslari	153
<i>Xusanboyeva Tursunoy Muxammadqasimjanovna</i>	
Motivational Readiness for Continuous Professional Development.....	162
<i>Okilova Kamola Sadulloyevna</i>	



O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA “YOLG'IZLIK” KONSEPTINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Sabina Saitmurodova Olim qizi

Bakalavr: Qarshi davlat universiteti,
Ingliz filologiyasi fakulteti bitiruvchisi

Magistratura: Toshkent shahridagi Webster universiteti,
TESOL fakulteti bitiruvchisi



ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-1424-9128>

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek va ingliz tillarida “yolg'izlik” konseptining leksik-semantik xususiyatlari qiyosiy aspektida tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi mazkur konseptni ifodalovchi leksik birliklarning semantik mazmuni, uslubiy xususiyatlari hamda milliy-madaniy jihatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, tavsifiy, komponent tahlil va semantik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, har ikki tilda “yolg'izlik” konsepti umumiy denotativ mazmunga ega bo'lsa-da, uning leksik ifodalanishi va konnotativ ma'nolari milliy tafakkur hamda madaniy qadriyatlar ta'sirida farqlanadi. O'zbek tilida konsept ko'proq oilaviy va ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq holda ifodalansa, ingliz tilida shaxsiy erkinlik, psixologik holat va individual tajriba bilan bog'liq semantik jihatlar ustunlik qiladi. Tadqiqot natijalari qiyosiy tilshunoslik, kognitiv lingvistika va lingvomadaniyatshunoslik yo'nalishlarida olib boriladigan ilmiy izlanishlar uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: yolg'izlik konsepti, leksik-semantik tahlil, qiyosiy tilshunoslik, kognitiv lingvistika, lingvomadaniyatshunoslik, o'zbek tili, ingliz tili, semantika.

Abstract: This article presents a comparative analysis of the lexical-semantic features of the concept of “loneliness” in the Uzbek and English languages. The study aims to identify the semantic content, stylistic characteristics, and national-cultural specificity of the lexical units representing this concept. The research employs comparative-typological, descriptive, componential, and semantic analysis methods to examine the linguistic realization of the concept in both languages. The findings reveal that although the concept of loneliness shares a common denotative meaning, its lexical representation and connotative nuances differ due to the influence of national worldview and cultural values. In Uzbek, the concept is primarily associated with family ties and social relationships, whereas in English it is more closely related to individual freedom, psychological state, and personal experience. The results contribute to the fields of comparative linguistics, cognitive linguistics, and linguocultural studies, providing a theoretical basis for further cross-cultural research.

Key words: loneliness, concept, lexical-semantic analysis, comparative linguistics, cognitive linguistics, linguocultural studies, Uzbek language, English language, semantics.

Аннотация: В данной статье проводится сравнительный анализ лексико-семантических особенностей концепта “одиночество” в узбекском и английском языках. Цель исследования заключается в выявлении семантического содержания, стилистических особенностей и национально-культурной специфики лексических единиц, репрезентирующих данный концепт. В ходе исследования применялись сравнительно-типологический, описательный, компонентный и семантический методы анализа. Результаты исследования показывают, что, несмотря на общность денотативного значения, концепт “одиночество” в двух языках отличается особенностями лексической репрезентации и коннотативного значения, сформированными под влиянием национального мировоззрения и культурных ценностей. В узбекском языке данный концепт преимущественно связан с семейными и общественными отношениями, тогда как в английском языке преобладают значения, отражающие индивидуальную свободу, психологическое состояние и личный опыт человека. Полученные результаты имеют теоретическую и практическую значимость для исследований в области сравнительного языкознания, когнитивной лингвистики и лингвокультурологии.

Ключевые слова: концепт “одиночество”, лексико-семантический анализ, сравнительное языкознание, когнитивная лингвистика, лингвокультурология, узбекский язык, английский язык, семантика.

KIRISH

Til inson tafakkuri, madaniyati va dunyoqarashini aks ettiruvchi murakkab ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Har bir xalqning borliqni idrok etishi va uni til vositasida ifodalashi o'ziga xos lisoniy dunyo manzarasini shakllantiradi. Shu sababli zamonaviy tilshunoslikda til birliklarini faqat grammatik yoki leksik jihatdan emas, balki ularning ortida mujassam bo'lgan konseptual mazmun, madaniy qadriyatlar va kognitiv xususiyatlar nuqtai nazaridan

o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik yo'nalishlarining rivojlanishi natijasida konsept tushunchasi til va tafakkur o'rtasidagi munosabatni tadqiq etishda muhim ilmiy kategoriya sifatida e'tirof etildi.

Bugungi globallashuv sharoitida turli xalqlarning muayyan konseptlarni qanday anglashini qiyosiy o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyat ham kasb etadi. Bunday tadqiqotlar madaniyatlararo kommunikatsiyani rivojlantirish, tarjima nazariyasini takomillashtirish hamda xorijiy tillarni o'qitish metodikasini boyitishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, "yolg'izlik" konsepti inson ruhiyati, ijtimoiy hayoti va madaniy qadriyatlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan murakkab tushunchalardan biri sanaladi.

O'zbek va ingliz tillarida "yolg'izlik" konsepti turli leksik vositalar orqali ifodalanadi. Mazkur birliklar umumiy denotativ ma'noga ega bo'lsa-da, ularning semantik tarkibi, uslubiy bo'yoqdorligi va qo'llanish doirasi bir xil emas. Masalan, o'zbek tilidagi yolg'iz, tanho, kimsasiz, yakka kabi birliklar ma'no nozikliklari bilan farqlansa, ingliz tilida loneliness, solitude, alone, isolation, seclusion kabi birliklar ham turli semantik va pragmatik xususiyatlarni namoyon etadi. Ushbu farqlar har ikki xalqning lisoniy dunyo manzarasi hamda madaniy tafakkuridagi o'ziga xos jihatlarni aks ettiradi.

So'nggi yillarda konseptologiya, kognitiv tilshunoslik va qiyosiy semantika yo'nalishlarida olib borilgan tadqiqotlar konseptlarning leksik-semantik tuzilishini o'rganishga keng imkoniyat yaratdi. Biroq "yolg'izlik" konseptining aynan o'zbek va ingliz tillari materiallari asosida qiyosiy leksik-semantik tahlili yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek va ingliz tillarida "yolg'izlik" konseptini ifodalovchi leksik birliklarning semantik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish, ularning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash hamda mazkur birliklarning lisoniy dunyo manzarasidagi o'rnini yoritishdan iborat.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi:

- "yolg'izlik" konseptiga oid nazariy qarashlarni tahlil qilish;
- o'zbek va ingliz tillarida konseptni ifodalovchi asosiy leksik birliklarni aniqlash;
- ularning semantik tarkibi va ma'no nozikliklarini qiyosiy o'rganish;
- konseptning milliy-madaniy xususiyatlarini yoritish;
- olingan natijalar asosida ilmiy xulosalar chiqarish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Konsept tushunchasi kognitiv tilshunoslikning markaziy kategoriyalaridan biri bo'lib, u til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganishda muhim nazariy asos vazifasini bajaradi. Konsept inson ongida shakllanadigan va til vositasida ifodalanadigan murakkab mental birlik sifatida talqin qilinadi. Shu sababli konseptlarni o'rganish zamonaviy tilshunoslikda lingvokognitiv va lingvomadaniy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Konsept nazariyasining shakllanishi va rivojlanishiga ko'plab olimlar salmoqli hissa qo'shgan. Xususan, George Lakoff va Mark Johnson konseptlarning inson tafakkuridagi o'rnini hamda ularning metaforik tabiati haqida ilmiy qarashlarni ilgari surgan. Ularning fikricha, insonning borliqni idrok etishi va tushunishi konseptual tizim orqali amalga oshadi, til esa ushbu tizimning asosiy ifoda vositasi hisoblanadi. Shuningdek, Zoltán Kövecses konseptlarning madaniy omillar ta'sirida shakllanishini asoslab, turli xalqlarda bir xil konseptlarning mazmuni va ifodalanishida sezilarli tafovutlar mavjudligini ta'kidlaydi.

Rus tilshunosligida konsept masalasi Yuriy Stepanov, Vladimir Karasik va Anna Wierzbicka kabi olimlarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan. Ular konseptni til egalarining madaniy tajribasi, milliy qadriyatlari va dunyoqarashini o'zida mujassamlashtiruvchi ko'p qatlamli semantik birlik sifatida tavsiflaydilar. Ayniqsa, konseptning leksik ifodasi hamda uning assotsiativ va emotsional komponentlarini tahlil qilish qiyosiy tilshunoslik uchun muhim metodologik asos yaratadi.

O'zbek tilshunosligida ham konseptologiya yo'nalishida qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Tadqiqotlarda lisoniy dunyo manzarasi, milliy-madaniy konseptlar va ularning til birliklari orqali ifodalanishi masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyati konseptning umumiy nazariy jihatlariga bag'ishlangan bo'lib, "yolg'izlik" konseptining aynan leksik-semantik xususiyatlarini o'zbek va ingliz tillari materiallari asosida qiyosiy tahlil qilish masalasi yetarli darajada o'rganilmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

So'nggi yillarda kognitiv semantika va lingvomadaniyatshunoslik yo'nalishlarida olib borilgan tadqiqotlar konseptlarning milliy-madaniy xususiyatlarini chuqurroq ochib berishga xizmat qilmoqda. Shu nuqtai nazardan,



“yolg‘izlik” konseptini o‘zbek va ingliz tillari misolida qiyosiy o‘rganish nafaqat nazariy tilshunoslik, balki tarjimashunoslik, madaniyatlararo kommunikatsiya va xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi uchun ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot o‘zbek va ingliz tillarida “yolg‘izlik” konseptining leksik-semantik xususiyatlarini qiyosiy o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda zamonaviy kognitiv tilshunoslik va qiyosiy tilshunoslik tamoyillariga asoslanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy muammoni kompleks yoritish maqsadida bir-birini to‘ldiruvchi bir nechta ilmiy metodlardan foydalanildi.

Avvalo, qiyosiy-tipologik metod yordamida o‘zbek va ingliz tillarida “yolg‘izlik” konseptini ifodalovchi leksik birliklarning umumiy va farqli jihatlari aniqlandi. Ushbu metod ikki tildagi semantik o‘xshashlik va tafovutlarni ochib berishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qildi.

Shuningdek, tavsifiy metod orqali konseptni ifodalovchi leksik birliklarning lug‘aviy ma‘nolari, uslubiy xususiyatlari va qo‘llanish doirasi izchil tavsiflandi. Komponent (komponential) tahlil metodi yordamida “yolg‘iz”, “tanho”, “kimsasiz”, “yakka” hamda “loneliness”, “solitude”, “alone”, “isolation”, “seclusion” kabi birliklarning semantik komponentlari ajratilib, ularning o‘zaro munosabati tahlil qilindi.

Tadqiqotning ishonchiligidini ta‘minlash maqsadida o‘zbek va ingliz tillarining izohli lug‘atlari, ilmiy monografiyalar, zamonaviy ilmiy maqolalar hamda elektron til korpuslari materiallaridan foydalanildi. Olingan ma‘lumotlar qiyosiy tahlil qilinib, konseptning har ikki tildagi leksik ifodalanishiga ta‘sir etuvchi milliy-madaniy va kognitiv omillar aniqlandi.

Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va xolisligini ta‘minlash, shuningdek, olingan xulosalarning ishonchiligidini oshirishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Leksik-semantik tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek va ingliz tillarida “yolg‘izlik” konsepti umumiy semantik asosga ega bo‘lishiga qaramay, uning til vositalari orqali ifodalanishida muayyan farqlar kuzatiladi. Ushbu farqlar har ikki xalqning madaniy qadriyatlari, ijtimoiy munosabatlari va lisoniy dunyo manzarasi bilan bevosita bog‘liq.

O‘zbek tilida yolg‘iz, tanho, kimsasiz, yakka kabi birliklar “yolg‘izlik” konseptining asosiy leksik reprezentantlari hisoblanadi. Biroq ular bir xil ma‘noni anglatmaydi. Masalan, yolg‘iz leksemasi shaxsning jismonan yoki ijtimoiy jihatdan yolg‘iz qolganligini bildirsa, tanho leksemasi ko‘proq ruhiy kechinma, ichki hissiyot va emosional holatni ifodalaydi. Kimsasiz leksemasida esa insonning yaqinlari yoki ijtimoiy tayanchidan mahrumligi asosiy semantik belgi sifatida namoyon bo‘ladi. Yakka leksemasi esa ko‘proq biror faoliyatni mustaqil bajarish yoki bir kishining alohida harakatini anglatadi.

Ingliz tilida esa loneliness, solitude, alone, isolation va seclusion birliklari mazkur konseptni ifodalovchi asosiy vositalardir. Ularning semantik xususiyatlari o‘zaro sezilarli darajada farqlanadi. Loneliness odatda salbiy emosional holatni, ya‘ni insonning o‘zini yolg‘iz his etishini bildiradi. Solitude esa aksincha, ixtiyoriy tanlangan yolg‘izlikni, osoyishtalik va ichki xotirjamlikni anglatuvchi ijobiy semantik bo‘yoqqa ega. Alone leksemasi ko‘proq neytral ma‘noda qo‘llanilib, shaxsning yonida boshqa odam yo‘qligini bildiradi. Isolation va seclusion birliklari esa jamiyatdan ajralish, chetlanish yoki majburiy yolg‘izlikni ifodalashi bilan tavsiflanadi.

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida “yolg‘izlik” konsepti ko‘proq oilaviy qadriyatlar, qarindoshlik munosabatlari va jamoaviy hayot bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Shu sababli mazkur konsept aksariyat hollarda salbiy emosional bahoga ega. Ingliz tilida esa individualizm tamoyillarining kuchlliligi sababli ayrim leksik birliklar, xususan, solitude, shaxsiy rivojlanish, ijodkorlik va ichki erkinlik bilan bog‘liq ijobiy mazmun kasb etadi. Bu holat konseptning semantik tarkibiga madaniy omillarning sezilarli ta‘sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Tahlil davomida leksik birliklarning semantik komponentlari ham taqqoslandi. O‘zbek tilida konseptning asosiy semantik belgilari yolg‘iz qolish, yaqin insonlarning yo‘qligi, ruhiy tushkunlik, ijtimoiy yordamga ehtiyoj kabi komponentlar orqali namoyon bo‘ldi. Ingliz tilida esa emotional isolation, physical aloneness, voluntary solitude, personal independence va psychological experience kabi semantik komponentlar ustunlik qildi. Mazkur farqlar konseptning har bir til egalarining milliy tafakkuri va madaniy qadriyatlari asosida shakllanishini ko‘rsatadi.

Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, “yolg‘izlik” konseptining leksik-semantik tuzilishi nafaqat til tizimining ichki qonuniyatlari, balki jamiyatning ijtimoiy-madaniy rivojlanishi, tarixiy tajribasi va mental xususiyatlari bilan ham uzviy bog‘liq. Shu bois mazkur konseptni qiyosiy o‘rganish turli tillarda lisoniy dunyo manzarasining o‘ziga xos jihatlarni ochib berishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari o'zbek va ingliz tillarida "yolg'izlik" konseptining leksik-semantik xususiyatlari til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi asosida shakllanishini ko'rsatdi. Tahlillar natijasida har ikki tilda ushbu konseptni ifodalovchi leksik birliklar umumiy denotativ ma'noga ega bo'lsa-da, ularning semantik tarkibi, konnotativ mazmuni va qo'llanish xususiyatlari milliy-madaniy omillar ta'sirida farqlanishi aniqlandi.

Tadqiqot davomida o'zbek tilidagi yolg'iz, tanho, kimsasiz, yakka kabi leksemalar hamda ingliz tilidagi loneliness, solitude, alone, isolation, seclusion birliklari qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, o'zbek tilida "yolg'izlik" konsepti ko'proq oilaviy qadriyatlar, ijtimoiy yaqinlik va insonlar o'rtasidagi munosabatlar bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Ingliz tilida esa ushbu konseptning ayrim leksik ifodalari shaxsiy erkinlik, ichki xotirjamlik va individual tanlov kabi ijobiy semantik qirralarni ham o'zida aks ettiradi.

Shuningdek, tadqiqot "yolg'izlik" konseptining leksik-semantik tuzilishini o'rganish qiyosiy tilshunoslik, kognitiv lingvistika va lingvomadaniyatshunoslik yo'nalishlarida muhim nazariy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqladi. Olingan natijalar konseptlarning milliy tafakkur va madaniy qadriyatlar bilan uzviy bog'liqligini yana bir bor ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- o'zbek va ingliz tillaridagi konseptlarni qiyosiy o'rganishda leksik-semantik tahlil bilan bir qatorda pragmatik va diskursiv yondashuvlardan ham foydalanish maqsadga muvofiq;
- "yolg'izlik" konseptining badiiy matnlar, publitsistik uslub va og'zaki nutqdagi ifodalanishini korpus lingvistikasi asosida o'rganish kelgusidagi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo'nalish hisoblanadi;
- tadqiqot natijalaridan kognitiv tilshunoslik, qiyosiy tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik va tarjimashunoslik fanlarini o'qitishda qo'shimcha ilmiy manba sifatida foydalanish mumkin;
- mazkur yo'nalishda boshqa emotsional konseptlar (masalan, baxt, qo'rquv, umid, muhabbat)ning leksik-semantik xususiyatlarini qiyosiy o'rganish konseptologiya sohasidagi ilmiy izlanishlarni yanada boyitadi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari "yolg'izlik" konseptining o'zbek va ingliz tillaridagi leksik-semantik xususiyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi hamda mazkur konseptning lisoniy va madaniy xususiyatlarini o'rganish bo'yicha keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Evans, V. (2007). A Glossary of Cognitive Linguistics. Edinburgh University Press.
2. Fillmore, C. J. (1982). Frame semantics. In *Linguistics in the Morning Calm* (pp. 111–137). Hanshin Publishing.
3. Kövecses, Z. (2020). *Extended Conceptual Metaphor Theory*. Cambridge University Press.
4. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press.
5. Langacker, R. W. (2008). *Cognitive Grammar: A Basic Introduction*. Oxford University Press.
6. Stepanov, Yu. S. (2004). *Konstanty: Slovar russkoy kultury* (3rd ed.). Akademicheskij Proekt.
7. Wierzbicka, A. (1999). *Emotions Across Languages and Cultures: Diversity and Universals*. Cambridge University Press.
8. Карасик, В. И. (2002). Языковой круг: личность, концепты, дискурс. Гнозис.
9. Кубрякова, Е. С. (2004). Язык и знание: На пути получения знаний о языке. Языки славянской культуры.
10. Маслова, В. А. (2004). Когнитивная лингвистика. ТетраСистемс.
11. Mahmudov, N. (2017). *Til va madaniyat. Tafakkur*.
12. Nurmonov, A. (2012). *Tanlangan asarlar*. Akademnashr.
13. O'zbek tilining izohli lug'ati. (2020). O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti.
14. Oxford University Press. (2024). *Oxford English Dictionary*. <https://www.oed.com>
15. Cambridge University Press. (2024). *Cambridge Dictionary*. <https://dictionary.cambridge.org>
16. OED.
17. Oxford English Dictionary.
18. The OED is the definitive record of the English language, featuring 600,000 words, 3 million quotations, and over 1,000 years of English.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.